



Azizbek ABDULHAYEV,
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

DSc, dotsent T.Ismoilov taqrizi asosida

HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI VA UNING ZAMONAVIY TALQINI

Аннотация

Maqolada harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, uning milliy ong va ma'naviy uyg'oqlikni shakllantirishdagi o'rni hamda zamonaviy talqinda qanday yangicha mazmun kasb etayotgani tahlil qilinadi. Ayniqsa, globallashuv, axborot xurujlari, gibrid tahdidlar kuchaygan bir paytda, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashdagi strategik ahamiyati yoritiladi. Mamlakatimizda yoshlarda yurtga sadoqat, vatan manfaatlarini himoya qilishga tayyorlik, milliy g'urur va tarixiy xotirani mustahkamlashga qaratilgan ta'limiy va tarbiyaviy siyosatning ijtimoiy-falsafiy asoslari keng ochib beriladi. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tushunchasining zamonaviy talqini doirasida uning psixologik, axloqiy va ma'naviy jihatlari, shuningdek, yangi davr pedagogik yondashuvlari kontekstida qanday evolyutsiyalashgani asosli misollar bilan izohlanadi. Mamlakat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda ushbu tarbiya tizimining rolga falsafiy yondashuv orqali tahliliy nazar tashlanadi.

Kalit so'zlar: Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, ijtimoiy-falsafiy tahlil, ma'naviy uyg'oqlik, milliy ong, zamonaviy talqin, gibrid tahdidlar, mafkuraviy barqarorlik, yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik konsepsiyasi, xavfsizlik madaniyati.

ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ И ЕГО СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация

В статье анализируется социально-философская сущность военно-патриотического воспитания, его роль в формировании национального сознания и духовной бодрости, а также то, какое новое содержание оно приобретает в современном контексте. Особенно подчеркивается стратегическое значение военно-патриотического воспитания в обеспечении идеологической устойчивости в условиях глобализации, информационных атак и нарастающих гибридных угроз. Широко раскрываются социально-философские основы образовательной и воспитательной политики в нашей стране, направленной на формирование у молодежи верности Родине, готовности защищать национальные интересы, укрепления национальной гордости и исторической памяти. Также обоснованно рассматриваются психологические, нравственные и духовные аспекты военно-патриотического воспитания в рамках современной интерпретации этого понятия, включая эволюцию содержания в контексте новых педагогических подходов. С философской точки зрения дается аналитический обзор роли данной системы воспитания в обеспечении национальной безопасности и социальной стабильности.

Ключевые слова: Военно-патриотическое воспитание, социально-философский анализ, духовная бодрость, национальное сознание, современная интерпретация, гибридные угрозы, идеологическая устойчивость, воспитание молодежи, концепция патриотизма, культура безопасности.

MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION: SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE AND ITS MODERN INTERPRETATION

Annotation

This article analyzes the socio-philosophical essence of military-patriotic education, its role in shaping national consciousness and spiritual resilience, and the new dimensions it acquires in the modern context. Special emphasis is placed on the strategic importance of military-patriotic education in ensuring ideological stability amid globalization, information warfare, and increasing hybrid threats. The study thoroughly examines the socio-philosophical foundations of the educational and ideological policies in our country, aimed at instilling in the youth loyalty to the homeland, readiness to defend national interests, and the strengthening of national pride and historical memory. Psychological, moral, and spiritual dimensions of military-patriotic education are also substantively explored, particularly within the framework of its evolving interpretation under new pedagogical approaches. From a philosophical standpoint, the paper provides an analytical overview of how this educational system contributes to national security and social stability.

Key words: Military-patriotic education, socio-philosophical analysis, spiritual resilience, national consciousness, modern interpretation, hybrid threats, ideological stability, youth education, concept of patriotism, security culture.

Kirish. XXI asr insoniyat taraqqiyotining o'ta murakkab, ko'p qirrali va ziddiyatli bir bosqichiga aylandi. Zamonaviy dunyo global tahdidlar, mafkuraviy bosimlar, informatson xavf-xatarlar va gibrid urushlar fonida tobora ko'proq mafkuraviy hamda ijtimoiy-falsafiy barqarorlikka ehtiyoj sezmoqda. Ayniqsa, mustaqil davlatlarning yosh avlodi ongida vatanparvarlik, milliy birlik, fuqarolik mas'uliyati va

yurtga sadoqat kabi tushunchalarni shakllantirish, ular orqali ichki mafkuraviy immunitetni kuchaytirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish, uni bugungi jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy ong va mafkuraviy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi — bu

faqatgina harbiy sohaga oid tushuncha emas, balki u chuqur ijtimoiy-falsafiy ildizlarga ega bo'lgan, insonning ijtimoiy ongida shakllanadigan, yurtparvarlik, milliy g'urur, fidoyilik, tarixiy xotira va ma'naviy merosga sadoqat kabi qadriyatlar tizimini o'z ichiga oluvchi ko'p qirrali tushunchadir. Mazkur tarbiya shakli jamiyatda milliy birdamlikni mustahkamlash, yurt himoyasi va vatan manfaatlariga xizmat qilishga tayyor, ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham bu hodisaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini chuqur anglash zamonaviy taraqqiyot sharoitida dolzarb ilmiy-ijtimoiy masala sifatida namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik tushunchasi, avvalo, ijtimoiy ongda shakllanadigan va jamiyat a'zolarining o'z vataniga bo'lgan muhabbati, sadoqati, fidoyiligi orqali ifodalanadigan murakkab axloqiy-falsafiy hodisadir. Uning harbiy komponenti esa, shaxsning yurt himoyasiga tayyorligi, harbiy burchni anglash darajasi, qurolli kuchlarga hurmat, harbiy intizom va fidoyilik kabi xususiyatlar bilan belgilanadi. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi shu ikki yo'nalishni – axloqiy-ma'naviy va harbiy-amaliy jihatlarni o'zida uyg'unlashtirgan tizim bo'lib, u jamiyatning mafkuraviy barqarorligi va milliy xavfsizligining asosi sifatida qaralishi kerak. Mazkur jarayonni chuqurroq tahlil qilish uchun ijtimoiy-falsafiy yondashuv muhim metodologik vosita hisoblanadi. Chunki faqat ijtimoiy-falsafiy tahlil orqali vatanparvarlikning mohiyati, kelib chiqish manbalari, zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va uni shakllantirish mexanizmlari aniq va puxta ochib berilishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati ortib borayotganining sabablari orasida xalqaro geosiyosiy vaziyatning beqarorligi, harbiy mojarolar xavfining kuchayib borayotgani, milliy suverenitet va xavfsizlik masalalarining dolzarblashuvi asosiy omillar sifatida ajralib turadi[1]. Shu sababli ham ko'plab ilg'or davlatlarda, xususan, O'zbekiston Respublikasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaratilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va ta'lim-tarbiya tizimidagi konseptual yondashuvlar bu tarbiyaning ijtimoiy-falsafiy asoslarini chuqurroq tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-yanvardagi "Yoshlar bilan ishlash va ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi davlat siyosatining uzviy davomi bo'lib, yoshlar ongida vatanparvarlik, milliy g'urur, tarixiy xotiraga hurmat tuyg'ularini shakllantirishda tizimli yondashuvni nazarda tutadi. Ushbu qarorda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi faqat harbiy xizmatga tayyorlash emas, balki shaxsda yurtga muhabbat, milliy g'urur va sadoqat ruhini shakllantirish vazifasi ham alohida ta'kidlanadi. Bu esa harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy va falsafiy mohiyatini ochib beruvchi asosiy dalildir[2]. Bundan tashqari, bugungi globallashuv davrida turli mafkuraviy oqimlarning yoshlar ongiga bo'lgan ta'siri kuchaygan, ularni o'z tarixiy ildizlari, milliy qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyatidan begonalashtirishga qaratilgan axborot xurujlari avj olgan bir sharoitda, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining zamonaviy talqini avvalgidan ko'ra kengroq va chuqurroq ma'noga ega bo'lmoqda. Endilikda bu tushuncha nafaqat armiya va harbiy xizmatga tayyorlikni anglatadi, balki yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni ijtimoiy faol, ongli va ma'naviy yetuk shaxs sifatida kamol toptirish vositasi sifatida talqin qilinmoqda[3]. Shu bilan birga, zamonaviy yondashuvlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining psixologik va pedagogik komponentlari ham muhim o'rin egallamoqda. Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, bu tarbiya turi shaxsda qat'iyatlilik, intizomlilik, mas'uliyat, iroda, murosasizlik, fidoyilik kabi ijobiy sifatlarni shakllantirishga

xizmat qiladi. Pedagogik yondashuv esa bu jarayonni yoshlar bilan ishlashning tizimli, bosqichma-bosqich va motivatsion asoslangan metodlari orqali amalga oshirishni taqozo etadi. Demak, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ko'p qirrali, tizimli va kompleks yondashuvni talab qiluvchi ilmiy-nazariy va amaliy soha bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada aynan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish, bu hodisaning zamonaviy talqinini aniqlash va uni shakllantiruvchi ijtimoiy omillarni aniqlash maqsad qilib olinadi[4]. Bunda jamiyat taraqqiyotidagi mafkuraviy omillar, milliy ong va tarixiy xotiraning o'rni, shuningdek, yoshlar tarbiyasiga oid ijtimoiy-falsafiy qarashlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, bu tarbiya tizimining ijtimoiy ongdagi in'ikosi, falsafiy yondashuvlar orqali mohiyatini anglash va uni mustahkamlash mexanizmlarini aniqlash muhim ilmiy vazifadir. Bu boradagi tahlillar zamonaviy gumanitar fanlar, xususan, falsafa, pedagogika, sotsiologiya, psixologiya va siyosatshunoslikning so'nggi yutuqlari asosida olib boriladi[5]. Shuningdek, maqolada harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tarixiy ildizlari va an'anaviy qadriyatlar bilan bog'liqligi ham ko'rib chiqiladi. O'zbekiston xalqi azaldan yurt himoyasini oliy burch deb bilgan, o'z milliy qahramonlari, ajdodlarining jasorati va fidoyiligi bilan faxrlanib kelgan. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Shiroqiy singari tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati yoshlar uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Shunday tarixiy an'analar asosida zamonaviy yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir.

Adabiyotlar tahlili. Amerikalik sotsiolog James S. Burk harbiy sotsiologiya va fuqarolar-harbiy munosabatlar sohasida yetakchi mutaxassis bo'lib, demokratiya sharoitida harbiy va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini sistematik tahlil qiladi. Uning ishlari, ayniqsa "Armed Forces & Society" jurnali orqali, harbiy xizmatga oid institutlarning ijtimoiy strukturaviy o'rtidan tortib, yurt himoyasiga bo'lgan ijtimoiy mas'uliyatning shakllanishiga qadar bo'lgan murakkab jarayonlarni nazariy va empirik yondashuvlar orqali tadqiq etadi[6]. Burkning sotsiologik nazariyasi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ijtimoiy navor sifatida qanday shakllanayotgani, qanday ijtimoiy funksiyalarga ega ekanligini tushinishda falsafiy tahlil bilan uzviy bog'liq bo'lgan ilmiy maydonni ifodalaydi. U, shuningdek, milliy g'urur, sadoqat va fuqarolik mas'uliyatini sintezlash orqali, tarbiyaning ijtimoiy-ma'naviy strukturasini ochib beradi. Bundan farqli o'laroq, Britaniyalik harbiy etika bo'yicha olim David Whetham etika va harbiy-professionalizm konsepsiyalari doirasida faol ishlaydi[7]. Uning etik nazariyalari harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining axloqiy-estetik jihatlarni chuqur falsafiy burchdan tahlil qilish imkonini yaratadi. Whetham harbiy etikaning zamonaviy kontekstda – texnologik o'sish, kibertahdidlar va operatsion etik dilemmaning ortib borayotgan sharoitida – yoshlar va harbiy xizmatchilar ongida vatanparvarlikni qanday muvofiqlashtirish kerakligini ko'rsatadi. U yaratgan pedagogik amaliyotlar, jumladan "Moral Victories" va "Ethics, Law and Military Operations" kabi asarlar, harbiy-vatanparvarlikni nafaqat milliy himoyaga bo'lgan tayyorgarlik, balki axloqiy-mazmunli shaxsiy moslashuv sifatida anglashga ko'maklashadi. Burk va Whetham nazariyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ikki turli luqmada — Burk sotsiologik kontekstda, Whetham esa etik-pedagogik kontekstda — yoritadi[8]. Bu olimlarning yondashuvlari birgalikda tarbiyaning zamonaviy jamiyatdagi roli, uning axloqiy-ma'naviy fundamenti va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi strategik funksiyasini murakkab strukturali ilmiy til bilan anglatadi. Bu ikki manba, bir tomondan, vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy-nazariy

asoslarini izchil ochib berar ekan, ikkinchi tomondan, tarbiya jarayonining ijtimoiy struktura va axloqiy fundamentlarini sintezlash orqali zamonaviy falsafiy talqinni yaratadi.

Metotologik qism. Ushbu tadqiqotda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini chuqur va tizimli o'rganish maqsadida, falsafiy hermenevtika metodidan foydalangan holda tushunchalarning tarixiy kontekstdagi evolyutsiyasi talqin qilindi, strukturaviy-funksional tahlil usuli orqali harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining jamiyatdagi ijtimoiy institutlar bilan o'zaro aloqalari, uning funksional vazifalari va transformatsion xususiyatlari aniqlab berildi, shuningdek, sotsiologik monitoring va kontent-tahlil metodlari asosida O'zbekiston Respublikasida ushbu tarbiya shaklining amaliy ifodasi, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va ommaviy axborot vositalaridagi talqini empirik jihatdan ko'rib chiqildi, tarixiy-komparativ tahlil orqali esa xorijiy tajribalar – xususan, James S. Burk va David Whethamning ishlari bilan solishtirma tahlil o'tkazilib, ularning konseptual yondashuvlari milliy modelga moslashtirildi, natijada, ushbu metodlar sintezi asosida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining zamonaviy zamindagi ijtimoiy-falsafiy mazmuni ilmiy asoslangan tarzda ochib berildi.

Natija. Olib borilgan ilmiy-falsafiy tahlillar natijasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat milliy xavfsizlikni ta'minlovchi strategik ijtimoiy institut sifatida, balki shaxsning fuqarolik ongini shakllantiruvchi, tarixiy xotira va milliy g'urumi mustahkamlovchi, ijtimoiy birlik va mafkuraviy barqarorlikni ta'minlovchi murakkab ma'naviy-mafkuraviy tizim sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi, ushbu tarbiyaning zamonaviy talqini esa an'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda harbiy tayyorgarlikdan tashqari axloqiy-falsafiy, psixologik-motivatsion, sotsiokultural komponentlar bilan boyitilgan integrativ pedagogik model asosida shakllanayotganini ko'rsatdi, xususan, global axborot tahdidlari va ideologik bosimlar kuchaygan davrda yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni qaror toptirishda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy-gnoseologik va aksiologik vazifalari yanada dolzarb tus olayotgani, milliy qadriyatlar va tarixiy xotira asosida vatan himoyasiga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish orqali ushbu tarbiya turi jamiyatning axloqiy mustahkamligi va mafkuraviy barqarorligida hal qiluvchi omilga aylangani isbotlandi.

Muhokama. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini zamonaviy geosiyosiy muhit, ideologik qarama-qarshiliklar va globallashtirish sharoitida tahlil

qilishda xalqaro ilmiy makon vakillari o'rtasida shakllangan nazariy pozitsiyalar keskin tafovut qilayotgani kuzatiladi. Ayniqsa, amerikalik harbiy sotsiolog James S. Burk bilan britaniyalik harbiy etika tadqiqotchisi David Whetham o'rtasidagi ilmiy qarashlar polilogik xususiyat kasb etadi. Burkning "Military culture and organizational effectiveness"[9] nomli asarida harbiy-vatanparvarlik fenomeni institutsional va tizimli sotsiologik konstrukt sifatida qaralib, uning asosi fuqarolik jamiyati bilan harbiy institutlar o'rtasidagi integrativ o'zaro ta'sir mexanizmlariga bog'liq deb baholanadi. Unga ko'ra, vatanparvarlik tarbiyasining asosiy negizi ijtimoiy rollar, fuqarolik mas'uliyati va institutsional ijtimoiylashtirish jarayonlarida aks etadi. Burk milliy ong va tarbiya o'rtasidagi o'zaro aloqalarni sotsiologik model asosida tahlil qilib, harbiy-vatanparvarlikni jamiyat barqarorligini ta'minlovchi ijtimoiy mexanizm deb qaraydi. Bunga qarshi o'laroq, David Whetham o'zining "Ethics, Law and Military Operations"[9] nomli tadqiqotida harbiy-vatanparvarlikni sotsiologik emas, balki etik-falsafiy kategoriya sifatida baholab, bu tushunchaning mohiyatini shaxsiy axloq, harbiy-professionalizm va ma'naviy mas'uliyat doirasida izohlaydi. Unga ko'ra, jamiyatda harbiy-vatanparvarlikni haddan ortiq institutsionallashtirish – shaxsiy axloqiy tanlov erkinligiga tahdid soladi, shuningdek, fuqarolik jamiyatida mafkuraviy mutlaqchilikka yo'l ochishi mumkin[10]. Whetham harbiy tarbiyaning asosiy maqsadi – qonun doirasida harakat qiladigan, harbiy etika mezonlariga tayanadigan axloqiy shaxsni shakllantirish ekanligini ta'kidlab, ushbu tizimni jamiyatning ma'naviy iqlimi bilan uyg'unlashtirish tarafdori bo'ladi. Mazkur ikki olim o'rtasidagi ushbu polemika, bir tomondan, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining institutsional-mustahkamlovchi funksiyasini yoritayotgan bo'lsa (Burk), ikkinchi tomondan, uning axloqiy-insoniy qiyofasiga urg'u qaratilayotganini (Whetham) ko'rsatadi. Shunday qilib, ularning qarashlari zamonaviy harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining jamiyatdagi o'rni, mohiyati va shakllanish mexanizmlari borasida ko'p qirrali, lekin o'zaro to'ldiruvchi yondashuvlar sifatida ilmiy asoslanadi.

Xulosa. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi XXI asrda jamiyatning mafkuraviy xavfsizligi, ma'naviy immuniteti va milliy qadriyatlar asosidagi ijtimoiy barqarorlikning tayanch ustunlaridan biri bo'lib qolmoqda; u davlat va jamiyat o'rtasidagi ko'pri, shaxs va millat o'rtasidagi ruhiy-madaniy bog'lovchi omil sifatida doimiy takomil va yangilanishda bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Ikramshikovna R. I. Bo'lajak ofitserlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik jihatlari //Tadqiqotlar. – 2025. – T. 59. – №. 4. – C. 36-43.
2. Diloram M., Shohbozbek E. O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy dunyo qarashini rivojlantirishning pedagogik asoslari //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 207-215.
3. Bobir o'g'li Q. S. Harbiy vatanparvarlik fazilatining axloqiy mezonlari //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 3. – №. 34. – C. 528-531.
4. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. Respublikamizda maktabgacha ta'limda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 221-228.
5. Xoliqov I. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda harbiy an'analarning o'rni //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
6. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 175-182.
7. Ikromov X. O'zbekiston respublikasida yoshlar orasida harbiy vatanparvarlik harakatining rivojlanish istiqbollari //Молодые ученые. – 2025. – T. 3. – №. 16. – C. 90-92.
8. Maxliyo S., Shohbozbek E. Yoshlarning ma'naviy dunyo qarashini shakllantirishda maktabgacha ta'limning o'rni //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 4. – C. 83-89.
9. Ahadjonovich Q. S., Bobir o'g'li Q. S. Harbiy vatanparvarlik axloqini shakllantirishning an'anaviy va zamonaviy usullaridan foydalanish //The theory of recent scientific research in the field of pedagogy. – 2024. – T. 2. – №. 20. – C. 97-100.
10. Nurmatov B. X., Nutfiyev I. I. Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning milliy va ma'naviy asoslari //SCHOLAR. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 182-187.